https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

Navoiy davlat universiteti Tillar fakulteti

O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishining 3-bosqich talabasi

Diyora Jabborova

“BEKATDAGI OQ UYCHA” QISSASIDA IBORALARNING QO‘LLANILISHI

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek tilining muhim ifoda vositalaridan biri bo‘lgan frazeologizmlarning badiiy asardagi o‘rni va ahamiyati tahlil qilinadi. Xususan, yozuvchi Normurod Norqobilovning “Bekatdagi oq uycha” qissasida qo‘llangan iboralarning semantik xususiyatlari, ularning asar personajlari portreti va xarakterini ochib berishdagi roli yoritiladi. Asarda ishlatilgan turg‘un birikmalar orqali qahramonlarning ichki kechinmalari, ruhiy holati hamda muallifning badiiy mahorati namoyon bo‘lishi asoslab beriladi. Shuningdek, frazeologizmlarning nutqning emotsional ta’sirchanligini oshirishdagi ahamiyati misollar asosida ko‘rsatib beriladi. Tadqiqot jarayonida “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” va qissa matnidan olingan misollar asos qilib olingan.

Kalit so‘zlar: frazeologizm, ibora, turg‘un birikma, o‘zbek tili frazeologiyasi, badiiy nutq, obrazlilik, emotsional ta’sir, personaj portreti, xarakter ifodasi, frazeologik lug‘at, milliy mentalitet, badiiy mahorat, lison va nutq.

O‘zbek tilining rang-barangligi va jimjimadorligini yana bir karra boyitib turadigan ifoda vositalardan biri frazeologizmlardir. Frazeologizmlar xalqimizning tarixi, dunyo qarashi, donishmadligi hamda mentalitetimizga bo‘lgan xurmati natijasida hosil bo‘lgan. U tilimizga tayyor shaklda kiritilgan bo‘lib, har bir adresantning so‘zining emotsional ta’siri va jarangdorliligini oshirish uchun xizmat qiladi. Iboralarni o‘zbek tilining xazinasi deyish mumkin. Boisi, xalqning urf-odatlari, madaniyati va tarixini o‘zida aks etadi. Frazeologizm til hodisasi sifatida lison va nutqqa daxldor birlikdir. Birdan ortiq mustaqil leksema ko‘rinishining birikuvidan tashkil topib, obrazli ma’noviy tabiatga ega bo‘lgan

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

lisoniy birlik frazeologizm deyiladi: tepa sochi tikka bo‘ldi, sirkasi suv ko‘tarmaydi, o‘takasi yorildi, do‘ppisi yarimta, ikki gapning birida, boshga ko‘tarmoq va boshqa. Frazeologizm ibora, frazeologik birlik, turg‘un birikma, barqaror birikma, frazeologik birikma atamalari bilan ham yuritiladi[1]

O‘zbek tilshunosligida iboralarni o‘rganishda Sh.Rahmatullayev, B.Yo‘ldoshev, S.Mirzaqulov va D.Hoshimovalar bir qator tadqiqotlar olib borib o‘z hissasini qo‘shishgan. Jumladan, O‘zbek frzaeologiyasini takomillashtirish maqsadida 2022-yil Shavkat Rahmatullayev, Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmonova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyevalar hammuollifligi ostida “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati” ishlab chiqildi . Ushbu lug‘at Sh.Rahmatullayev tomonidan yaratilgan «O‘zbek tilining frazeologik lug‘ati» (1992) asosida tuzildi. Sh.Rahmatullayev lug‘ati 3000 dan ortiq frazeologik birlik izohini o‘z ichiga olgan. Ushbu lug‘atni tahrir qilish jarayonida davr mafkurasini ifodalovchi matnlar, zamon nuqtayi nazaridan eskirgan lug‘aviy birliklar olib tashlandi. Lug‘at maqolalari mustaqillikdan keyingi davrda yaratilgan badiiy asarlar misollari bilan boyitildi. Frazeologizmlarning semantik taraqqiyotini kuzatish imkoniyatini yaratish hamda ijodkorning badiiy mahoratini aks ettirish maqsadida mustaqillikdan oldingi davrga oid manbalar misollari qoldirildi[2]

O‘zbek tili va adabiyoti taraqqiyotida iboralar jarangdorlikni oshirish va ifodalilikni kuchaytirish bilan bir qatorda obrazlilikni kuchaytirishga ham xizmat qiladi. Shu bois badiiy adabiyotda turg‘un birikmalardan asar qahramoni portretini chizishda, ayni damdagi vaziyatni aks etishda unumli foydalaniladi. Jumladan 21-asr o‘zbek adabiyotining yorqin namoyondalaridan biri, xalqimiz sevgan yozuvchi Normurod Norqobil asarlarida ham kuzatish mumkin. Yozuvchi “Changalzor iti”,”Sariqgul”, “Tog‘ odami”, “Zangori ko‘l”, “Yuzma-yuz” kabi qator qissalarida iboralardan asardagi personajlarning tasvirini naqadar aniq ko’rsatib berishda

[1]Sayfullayeva R.R, Mengliyev B.R va boshqalar. Hozirgi o‘zbek adabiy tili. – Toshkent, 2010. 172-bet
[2] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 6-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

hamda undagi emotsional ta’sirni kuchaytirishda unumli foydalangan. Ushbu maqolada Normurod Norqobilovning “Bekatdagi oq uycha” qissasidagi iboralarning tasnifi, ma’nosi, asarda aks etgan ifodasi hamda ular orqali tavsir etilgan obrazlar emotsiyalari tahlil qilinadi. Maqolada “Pharos ambition” nashriyotining Toshkent – 2023 nashriga qarashli “Bekatdagi oq uycha” kitobidan foydalanildi.

Bahridan o‘tmoq Nizomiddin Mahmudov, Zulxumor Xolmonova, Iqbol O‘razova, Kamola Rixsiyevalar hammuollifligi ostidagi 2022-ylda nashr qilingan “O‘zbek tili frazeologik lug‘ati”da bu iboraning kim? nimaning? yoki kimning? foydali deb bilgan narsasidan yoki kishisidan voz kechmoq variantlari berilgan. Asarda esa Shukur quvnoq ikkinchi xotinidan nafratlanishi va uning tug‘masligidan hamisha norozi bo‘lib, har damda qutulishni istashi aks etgan. “ Ko‘rasanlar, bu tug‘mas qarg‘ani, albatta, bahridan o‘taman!” (6-bet)

Tanobini tortmoq. kimning? o‘lchamini qisqartirmoq, kamaytirmoq. nimaning? o‘z xohish-irodasiga itoat ettirmoq, tizginlamoq. kimning? faoliyat doirasini, imko niyatini cheklab qo‘ymoq.[3] Asarda esa Murodning naqadar baquvvat, hech kimdan hayiqmasligi shu bilan birga Shukur quvnoqning ham hurmatini joyiga qo‘yib qo‘yishi va uni o‘z himoyasi ostiga olgani ko‘rsatib berilgan: Bejizga emas, yigit uning eng ishonchli himoyachisi, Shukur quvnoqqa tirg‘almoqqa haddi yetgan har qanday zo‘ravonni zumda tanobini tortib qo‘ya oladi. (6-bet)

Pinagini buzmaslik. kim? [o‘zining] o‘ziga qaratilgan gap yoki harakatga bila-ko‘ra turib e’tibor qilmaslik o‘zini go‘yo hech narsa sezmagandek tutmoq.[4] Murod avval ham Qobul ismli bezorining ham ta’zirini berganiligi va hozirgi zo‘ravonning ham dag‘dag‘asidan ikki ham bir palakdan ekanligini anglagani

[3] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 476-bet.
[4] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 390-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

uchun bu kabi po‘pisalar yangilik bo‘lmay, uning gaplarini nazar nisanda qilmaydi: Murod bir hafta burun Qobul otliq bezoridan ham shunga o‘xshash gapni eshitgan emasmi, ikkisi bir palakdan ekanini darrov famlab, pinagini buzmagan holda o‘smoqchilab dedi:

- Mabodo, anovi Qobul tentak deganlari senga og‘ayn emasmi?

Hadisini olmoq. Biror usulni qo‘llash mo‘ljalini qilmoq. Bu endigi savolning debochasi ekanini sinashta bo‘lib qolgan Shohgado darrov payqadi. Hadis olgan polvondek hozirlik ko‘rib turdi.[5] Ushbu ibora asarda Murodning ko‘cha janjallarida qatnashaverib ko‘zi pishib ketganmidan raqibning har bir harakatini e’tibordan chetda qoldirmasligini anglatish uchun qo‘llangan bo‘lib, matnga o‘zgacha emotsionallik bag‘ishlagan: Murod bu kabi to'qnashuvlarning hadisini olgan emasmi, uning har bir xatti-harakatini nazaridan qochirmagan holda narida ko'zlari javdirab turgan Shukur quvnoqqa ishora qilib, dedi:

- Kechirimni mendan emas, anovi kishidan so'raysan. (6-bet)

Baxti kemtik. Kishining baxtsizligi va hatotda omadi chopmaganligi ifodalash uchun xizmat qiladi. Shukur quvnoq ham Abdulla ham o‘zining ishdagi ajoyib jamoasiga ega bo‘lsa-da, lek oila borasida omadi kelmagan edi, ikkisining ham ayoliga nisbatan ko‘ngli yo‘q farzandlari esa mehrsiz, shu sabab Abdulla ta’biri bilan ularni baxti kemtik kimsalar deyish mumkin: Bunday olib qaraganda, uning jamoasida muommasiz odamning o'zi yo'q: biri ayolidan kuyib, biri farzandidan siqilgan, biri esa... jamoaning yoshi ulug' a'zosi bo'lmish Abdulla ta'biri bilan aytganda, bari o'z holicha baxti kemtik kimsalar. (7-bet)

Aroni achimagan. Kimning? bemalol, bamaylixotir, shoshilmay.– Kelib qoladi. Tanish-bilishlari bilan uchrashib qolgan bo‘lsa, ayroni achimay yurgandir-da. [6] Smena almashish vaqtida vagonlar kechikishidan Shukur quvnoqning

[5] O‘zbek tilining izhli lug‘ati.Beshinchi jild.
[6] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 51-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

fig‘onini falakka chiqib smena boshlig‘i O‘nar naynovga odag‘aylab, stansiyadagilarni urishini aytsa ham O‘nar naynov uning gaplariga parvo qilmay yonidagi kishilarga gap qotishda davom etaveradi, ushbu holatdan jig‘ibiyroni chiqib turgan bir paytda yana unga qo‘l siltab o‘tib ketgani Shuku qyvnoqni jig‘ildonini qaynatadi va qanaqangi ayroni achimagan odamsan degandek qo‘l siltaydi: So'ng esa go'yo bexosdan Shukur quvnoqqa ko'zi tushganday, salom, deya avval o'ng, keyin so'l qo'lini ko'tarib qo'ydi. Bunga javoban Shukur quvno qanaqa ayront achimagan odamsan o'zi, deganga o'xshash gaplar qildi. (10-bet)

Og‘zining tanobi qoshmoq. kimning? behad sevinmoq, xursandligi tufayli lab-lunjini yig‘ishtirib ololmaslik. Varianti: og‘iz tanobi qochib (–) (oz ishlatiladi, sun’iy). Sinonimi: og‘z(i) qulog‘(i)ga yet di kimning? bosh(i) ko‘kka yetdi kimning? teri(si)ga sig‘may ketmoq kim? [o‘zining] qo‘y(i) mingga yetdi kimning.[7] Shukur quvnoq brigadada qimmatbaho yuk to‘ldirilgan vagonlarga juda o‘ch inson bo‘lib, har doim qimmatbaho metal yoki shunga o‘xshash yuk to‘ldirilgan vagon bo‘lsa, uning jamoasi yuk tushirardi va albatta buning ortida yaxshigina daromad ham bo‘ladi. O‘nar naynov kelayotgan vagonlarning bir nechtasi metallga to‘la ekanligini aytganda Shukur quvnoq o‘zida yo‘q xursand bo‘lib ketadi: O'nar naynov uni o'z holiga qo'ymay, qulog'iga sekin shivirladi: - --- - Shukur aka, kelayotgan vagonlar orasida ikkita zo'ri bor.

- Xo'sh? Shukur quvnoq darrov hushyor tortdi.

- Ikkalasiga ham metall buyumlar yuklangan...

Bu gapdan Shukur quvnoqning yuziga tabassum yugurib, og'zining tanobi qochdi. (13-bet)

Quvonchiga suv sepish. Kimningdir kayfiyatini buzmoq, xursandchiligini uzoqqa cho‘zilishiga yo‘l qo‘ymaslil degan ma’nolarni bildirib, Kelayotgan ikkita vagonni ko‘zlab ichidan sevinib turgan turgan Shukur quvnoqqa O‘nar naynov

[7] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 380-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tegishib, uni talabalarga berishni taklif qiladi, keladi. Shukur quvnoqning o'zida yo'q shodlanishini atay kutib turgan O'nar naynov uning quvon-chiga suv sepish uchun sekin dedi:

-Vagonlar tez bo'shatilishi lozim ekan, shuning uchun birini anovu talabalarga bersammi deyapman. (13-bet)

Yo‘qni yo‘ndiradigan. Har qancha mashaqqat bilan bo‘lsa ham, bunyod qilmoq. Varianti: yo‘q ... ni yo‘na(miz)mi?! Xudoga shukur, ko‘rpa-yostig‘im ham yetadi. Dam iliq, dam sovuq tan cham bor.Yo‘qni yo‘ndiramiz, bu ayni maslahat... Kampirimga yo‘ldosh, yetim go‘daklarimga bosh bo‘ladi bu qizim. Oybek. Qutlug‘ qon.[8] Shukur quvnoq O‘nar naynovni “pora” evaziga har ikkala vagonni o‘zlari qabul qilishiga ko‘ndirgach xuddi tog‘ni talqon qilgandek Murodga hamma ish qo‘lidan kelishini maqtanib ham qo‘yadi: O'nar naynovga qolsa, „pora" xususida miriqib g'i dillashmoqchi edi. Biroq hovli chirog'ini yoqishga chiqqan Faya uni telefonda yo'qlashayotganini aytib, bu, lazzat ning beliga tepdi. U o'ziga umid bilan tikilib turgan Shukur quv-noqni tinchlantirish uchun, roziman, degan ma'noda bosh irg'ab, dispetcherxona tomon shoshildi. Shukur quvnoqning quvonchi qayta jo'shib, Murodning biqiniga turtib, dedi:

- Ko'rdingmi, biz shunaqa yo'qni yo'ndiradigan odam-miz! (14-bet)

Normurod Norqobilov asarlari o‘zining jimjimadorlikdan yiroq bo‘lib, barchaga tushunarli tilda va ayniqsa, iboralar bilan shirador qilib ishlanganligi bilan boshqalardan ajralib turadi. “Bekatdagi oq uycha” qissasi o‘ziga xos xalqona frazeologik birliklar hamda paralingvistik birliklarga boy bo‘lib, o‘quvchini zeriktirib qo‘ymaydi va balki, ifodalilikni oshirib, asardago har bir personaj portretini chizishda katta ahamiyat kasb etgan iboralar o‘quvchini o‘ziga jalb qilishi tabiiy. Asardagi ba’zi iboralar tanish bo‘lishi mumkin, lekin ko‘pchiligi hali

[8] SH. Rahmatullayev, N. Mahmudov, Z. Xolmonova, I. O‘razova, K. Rixsiyeva. O‘zbek tili frazeologik lug‘ati. – Toshkent, 2022. 580-bet.

https://wordlyknowledge.uz/index.php/gpble
Qabul qilingan sana: 07.12.2025
Nashr etilgan sana: 30.01.2026

tahlil etib ulgurilmagan. Ushbu maqolada frazemalarning emotsional-ekprissivligi hamda asardagi qo‘llanilishdagi ahamiyati tahlil qilindi.